

**LOGOPEDIYA: NUTQ BUZILISHLARINI O'RGANISH VA TUZATISH
FANINING MOHIYATI, RIVOJLANISHI VA AHAMIYATI**

Otajonova Pokizabegim Sanjarbek qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Maxsus pedagogika yo'nalishi 4 kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada siz ta'lim sohasining ajralmas bo'lagi bo'lgan Maxsus pedagogikaning eng katta va eng keng tarqalgan yo'nalishlaridan biri Logopediya haqida ko'plab ma'lumotlarga ega olasiz. Logopediya fanining maqsadi, vazifalari va nutq nuqsonlarining turlari haqida gaplashamiz. Bu maqola sizga foydali bo'ladi va maxsus pedagogikada olgan bilimlaringizni yanada mustahkamlaydi.*

Kalit so'zlar: *logopediya, nutq nuqsonlari, korreksion pedagogika, anatomiya, fiziologiya, og'zaki nutq buzilishlari, yozma nutq buzilishlari, muomala vositalarining buzilishi.*

Maxsus pedagogika – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiliklari bor bolalarning rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fandir. Korreksiya so'zi lotincha-tuzatish, bartaraf etish degan so'zlardan olingan.

Korreksion pedagogika fani rivojlanib borib, ayrim sohalari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Shu fanlar jumlasiga logopediya ham kiradi. Logopediya (logos -so'z, padeo – tarbiyalash, o'rgatish degan ma'noni anglatadi) – pedagogik fanlardan biri bo'lib, nutq kamchiliklari va ularning sabablarini o'rganish, shuningdek, bularning oldini olish, nuqsonlarni bartaraf etish uchun maxsus ta'lim-tarbiya vositalari va metodlarini ishlab chiqish, amaliyotga tadbqiq etish masalalari bilan shug'ullanadi.

Logopediya – nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta'lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o'rganish, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fandir.

Logopediyaning predmeti – nutqda nuqsoni bo'lgan shaxslarni o'qitish va tarbiyalashning qonuniyatlarini o'rganish.

Maqsad – nutqda nuqsoni bo'lgan shaxslarni o'qitish, tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish, shuningdek nutq nuqsonining oldini olishdan iborat.

Obyekt – nutq nuqsoniga ega bo'lgan shaxs.

Predmet – nutqda nuqsoni bo'lgan insonlarni tarbiyalashning qonuniyatlarini o'rganish.

Logopediya fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

-Turli xil nutq kamchiliklari bor kishilarning nutq faoliyati ontogenezini o'rganish.

-Nutq kamchiliklarining sabablari va simptomatikasi, ularning turlari, kelib chiqish mexanizmlarini o'rganish, darajasini aniqlash. Nutq kamchiliklarini kishi faoliyati, shaxsiyati, xulq-atvori, ruhiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganish.

-Eshitish, ko'rish, intellektual va boshqa kamchiliklarga ega bo'lgan alohida yordamga muhtoj bolalar nutqiy faoliyatining ahvoli, yetishmovchiliklarini o'rganish, aniqlash.

-Nutq kamchiliklarini aniqlash yo'llari, usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbqiq etish.

-Nutq kamchiliklarini sistemaga solish, tasniflash, tizimga keltirish.

-Nutq kamchiliklarining oldini olish, bartaraf etish prinsiplari va usullarini, tashkiliy shakllarini belgilash, ishlab chiqish, takomillashtirish.

Logopediya umumiy anatomiya va fiziologiya, nutq mexanizmlari, nutq jarayonining bosh miyada tashkil etilishi haqidagi, nutq faoliyatida ishtirok etadigan analizatorlarning qurilishi va harakatga kelishi haqidagi bilimlardan foydalanadi.

Logopediyada “nutq rivojlanishining buzilishi” va “nutq rivojlanishining to‘xtab qolishi” tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Nutq ontogenezi jarayonini ko‘rsatuvchi nutq rivojlanishining to‘xtab qolishi, bu — sur‘atning sekinlashuvini bildiradi. Bunda nutqning rivojlanish darajasi bolaning yoshiga mos kelmaydi.

“Nutq parchalanishi” tushunchasi mavjud bo‘lgan nutq ko‘nikmalari va kommunikativ malakaning (bosh miyaning lokal yoki diffuziyali xastalanishi oqibatida) yo‘qolganligini anglatadi. Nutqning buzilishi alomati bu nutqiy faoliyatning qandaydir buzilishi belgisi (namoyon bo‘lishi)dir. Nutqiy buzilish alomati — bu nutqiy faoliyat buzilishining belgilari majmuyi (ko‘rinishlari)dir.

Nutq buzilishi mexanizmlari deganda, nutqiy faoliyat buzilishining paydo bo‘lishi va rivojlanishini shart qilib qo‘yuvchi jarayon va operatsiyalarning bajarilishidan chetlashish xarakteri tushuniladi. Nutq buzilishining patogenezi — bu nutqiy faoliyatda buzilishlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga sabab bo‘luvchi patologik mexanizmdir.

Tadqiqotchilar bolalardagi nutq buzilishlari tasnifi masalalarini ishlab chiqishda ikkita yo‘nalishga ajraldilar: birinchi yo‘nalish tarafdorlari nutq buzilishlarining umumiy logopediyaga dahldor an‘anaviy nomenklaturasini saqlab qoldilar. Lekin uni yangi mazmun bilan boyitdilar. Boshqa yo‘nalish tarafdorlari nutq buzilishlarining logopediya uchun an‘anaviy bo‘lgan nomenklaturasini inkor etdilar va nutq buzilishlarining yangi guruhlarini tuzdilar. Shunday qilib, hozirgi davr mamlakat logopediyasida nutq buzilishlarining ikkita tasnifi o‘rin olgan: bittasi — tibbiy pedagogik, ikkinchisi — psixologik-pedagogik yoki pedagogik (R.Ye. Levina bo‘yicha). Qayd qilingan tasniflar nutq buzilishlari tipologiyasi guruhlarda farq bo‘lgan holda bir xildagi holatlarni turli nuqtayi nazardan o‘rganadi, lekin ular bir-biriga qarshilik qilishdan ko‘ra bir-birini ko‘proq to‘ldiradi. Zotan ular logopedik ta‘sir etishning yagona, ammo ko‘p tomonli jarayonidagi turli vazifalarni hal etishga qaratilgandir.

Tibbiy-pedagogik tasniflashda ajratiladigan nutq buzilishlarining turlari. Buzilishlarning yuqoridagi tasniflashda ko‘rib chiqilayotgan barcha turlarini psixologik-lingvistik mezonlar asosida nutqning qaysi turi buzilganiga qarab ikkita guruhga bo‘lish mumkin: og‘zaki va yozma.

Og‘zaki nutqning buzilishi o‘z navbatida ikkita turga bo‘linishi mumkin: 1) bayon qilishning fonatsion (tashqi) ta‘minlanishi, ular nutqning talaffuz tomonining buzilishi deb ataladi va 2) bayon qilishning semantik-struktura (ichki) jihatdan ta‘minlanishi, ular logopediyada nutqning uzluksiz yoki ko‘p tovushli buzilishi, deb ataladi.

1. Disfoniya (afoniya) — tovush apparatining patologik o‘zgarishlari oqibatida fonatsiyaning yo‘q bo‘lishi yoki zaiflashuvi.

2. Bradilaliya — nutqning patologik sekinlashgan sur‘ati.

3. Taxilaliya — nutqning patologik tezlashgan sur‘ati.

4. Duduqlanish — nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur'at-ohangning buzilishidir.

5. Dislaliya — tovush talaffuz qilishning normal eshitish tortishi apparatining saqlangan innervatsiyasi paytida buzilishi.

6. Rinolaliya — tovush tembri va talaffuzining nutq apparatidagi anatomik-fiziologik nuqsonlar bilan bog'liq holdagi buzilishdir.

7. Dizartriya — nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchilik bilan bog'liq holdagi buzilishidir.

Bayon qilishning strukturali-simantik (ichki) turlanishidagi buzilishi ikki tur: alaliya va afaziya bilan ko'rsatiladi.

1. Alaliya — bosh miya qobig'idagi nutq zonalarining bolaning ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davrida organ shikastlanishi natijasida nutqning yo'q bolishi yoki rivojlanmay qolishi.

2. Afaziya — bosh miyaning muayyan joyi shikastlanishi bilan bog'liq holda nutqning to'liq yoki qisman yo'qolishi.

Psixologik-pedagogik tasnif tibbiy tasniflarni pedagogik jarayonda qo'llanish nuqtayi nazaridan tanqidiy tahlil qilish natijasida vujudga keldi(bu uslub logopedik ta'sir etish deyiladi). Bunday tahlil logopediyani nutqiy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashga jalb etish bilan bog'liq holda juda muhim bo'ldi.

Birinchi guruh — muomala vositalarining (nutqning fonetik va fonematik va umumiy rivojlanmay qolishi) buzilishi.

1. Nutqning fonetik va fonematik rivojlanmay qolishi — bolalarda ona tilini talaffuz qilish tizimi shakllanish jarayonlarining fonemalarini idrok etish va talaffuzdagi nuqsonlar oqibatida turlicha nutq zaiflashuvlari bilan bog'liq ravishda buzishlaridir.

2. Nutqning to'liq rivojlanmay qolishi — turli xil murakkab nutqiy kamchilikdir, bunda nutq tizimining tovush chiqarish va ma'noli tomonlariga taalluqli barcha komponentlarining shakllanish jarayoni buzilgan boladi.

Ikkinchi guruh — muomala vositalarini qo'llashdagi buzilish (unga duduqlanish ham kiradi), bu muomala vositalarining to'g'ri shakllangan holatidagi nutqning kommunikativ funksiyalarini buzilishi deb qaraladi.

Bir necha xil (kombinatsiyalangan) nuqson ham bo'lishi mumkin, bunda duduqlanish nutqning umumiy rivojlanmay qolishi bilan qo'shilib ketadi

Nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarni turli tovushlarni to'g'ri talaffuz ustiga o'rgatish, mustaqil tekshirish, logopedik mashqlarni bajarishda ota-onalar va pedagoglar ayrim qiyinchiliklarga duch keladilar.

Bolalarni birinchi yoshdan, nutqida yuzaga kelgan nuqsonlarni bartaraf etish, to'g'ri talaffuzga o'rgatishning kompleks metodlari tavsiya qilinadi.

Unga quyidagi mashqlar kiradi:

1. Mayda qo'l motorikasini tizimli rivojlantirish va mustahkamlash ishlari:

- ovoz va nutq bilan tizimli bog'langan harakatlar;
- koptok bilan o'yinlar;
- nazorat tafakkurini rivojlantiradigan mashqlar;

- yozuvga tayyorlov va disgrafiyaning oldini olish:

2. Nutq terapevti massaji:

- klassik, yangi an'anaviy;

- zondlar;

- o'z-o'zini massaj qilish;

3. Nafas mashqi va unli tovushlar bilan o'yinlar:

4. Artikulyatsiya mashinasi:

5. Izotonik mashqlar.

Bu usullar orqali yuqorida aytib o'tilgan nutqlarni bartaraf etish yoki korreksiya qilish mumkin.

Insonning nutqi uning faqat muloqoti emas uni ishonchi , hissiyotlari , quroli va emotsiyalaridir. Nutq hayotimizning eng kerakli qismlaridir. Shuning uchun nutq nuqsonlarini erta aniqlash va korreksiya qilish bu kelgusidagi hayotidagi muvaffaqiyatning poydevori bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ayupova M.Y. Logopediya- Toshkent." O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" ,2007.

2. Xamidova.M.U. Maxsus pedagogika- Toshkent." Fan va texnologiya" , 2022.

3. Shomaxmudova M , Nurmuhammedova .L.Sh, To'laganova.D.R. Logopediya (Kompleks mashqlar)- Toshkent." Lesson print nashriyoti", 2015.